

UDK: 930.1

KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATINING O'ZBEKISTONGA TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI

Sunbula Qodirova

E-mail: sunbulaqodirova93@gmail.com

Tel: +998 94 402 11 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda sovetlar tomonidan amalga oshirilgan yer-suv islohoti va 1929 – 1933-yillardagi yoppasiga kollektivlashtirish siyosati, uning mazmun-mohiyati hamda oqibatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “quloqlar”ni sinf sifatida tugatish siyosati, dehqon xo'jaliklarini musodara qilish, surgunlar, majburiy birlashtirish, siyosiy terror va ma'muriy-buyruqbozlik usullarining kuchayishi tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, kollektivlashtirishga qarshi O'zbekiston qishloqlarida kuzatilgan ommaviy noroziliklar, ularning shakllari, ko'lamlari, sabablari hamda sovet hokimiyati tomonidan qo'llangan zo'ravonlik choralarining dehqonlar hayotiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston tarixi, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, yer-suv islohoti, sovet siyosati, siyosiy terror, qatag'on, dehqonlar noroziligi.

ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИКИ КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ НА УЗБЕКИСТАН И ЕЁ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются проведённая советами земельно-водная реформа в Узбекистане и политика сплошной коллективизации 1929–1933 годов, её содержание, сущность и последствия. В исследовании освещаются политика ликвидации «кулаков» как класса, конфискация крестьянских хозяйств, депортации, принудительное объединение, политический террор и усиление административно-командных методов на основе исторических источников. Также раскрываются массовые протесты, наблюдавшиеся в узбекских деревнях против коллективизации, их формы, масштабы, причины, а также воздействие репрессивных мер, применённых советской властью, на жизнь крестьян.

Ключевые слова: История Узбекистана, коллективизация, раскулачивание, земельно-водная реформа, советская политика, политический террор, репрессии, крестьянское сопротивление.

THE IMPACT OF THE POLICY OF COLLECTIVIZATION ON UZBEKISTAN AND ITS CONSEQUENCES

Annotation: This article analyzes the land–water reform carried out by the Soviets in Uzbekistan and the policy of mass collectivization of 1929–1933, its content, essence, and consequences. The study examines the policy of eliminating the “kulaks” as a class, the confiscation of peasant farms, deportations, forced consolidation, political terror, and the

intensification of administrative–command methods on the basis of historical sources. It also reveals the mass protests observed in the villages of Uzbekistan against collectivization, their forms, scale, causes, and the impact of the violent measures employed by the Soviet authorities on the lives of peasants.

Keywords: *History of Uzbekistan, collectivization, dekulakization, land and water reform, Soviet policy, political terror, repression, peasant resistance.*

KIRISH

O'zbekistonning sovetlar davri tarixida yuz bergan ammo mustaqillik davrigacha deyarli mutlaqo o'rganilmagan mavzulardan biri "quloqlar" bilan bog'liq bo'lib, u qatag'on etilib, surgun qilingan dehqonlarimizning ayanchli hayoti, taqdiri hisoblanadi. Sovetlar davrida bu mavzu o'rganish uchun man etilgan edi. Quloqlar "qishloq burjuaziyasi", "aksilinqilobchilar", "xalq dushmanlari", "sotsializm dushmanlari" va "kolxoz dushmanlari" degan nomlar bilan ajratib kelindi. Mustaqillik sharofati bilan mazkur mavzuni to'liq va xolisona tarzda o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bunda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1999-yil 12-maydagi farmoyishiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-iyuldagi "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qarori [1]. sohaga oid dastlabki ilmiy tadqiqot ishlarining huquqiy asosi bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sovetlar tomonidan amalga oshirilgan kollektivlashtirish va uning salbiy oqibatlari haqida Andijon davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori R.T. Shamsutdinovning "O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari", "Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. (O'rta Osiyo respublikalari misolida)" "Shimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlar qismati nomli monografik tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur asarlarda nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo mintaqasidagi kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun jarayonining mazmun-mohiyati, bunda kuch ishlatish organlarining roli O'zbekiston tarixshunosligida ilk bor o'rganildi. Bundan tashqari M. Abdullayevning "O'zbekistonda sovetlarning "quloq" qilish siyosati va uning fojiali oqibatlari (1929 – 1945-yillar)" hamda A. Mamajonovning "Kollektivlashtirish jarayonida O'zbekiston qishloqlaridan Shimoliy

Kavkazga surgun qilinganlar” nomli tarix fanlari nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalarda Ukraina, Shimoliy Kavkaz hamda Shimoliy Qozog‘istonga surgun qilinganlarning xayoti va taqdiri yoritilgan. Keyingi yillarda kollektivlashtirish jarayonining oqibatlarini viloyatlar kesimida ochib berishga qaratilgan tadqiqot ishlari ko‘paydi. Jumladan, X.R.Kurbanov tomonidan “O‘zbekistonda zo‘rluk bilan o‘tkazilgan kollektivlashtirish va uning oqibatlari. 1929 – 1938 yillar (hozirgi Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari misolida)” nomli, U.T. Bekimmetov tomonidan “Sovetlarning Xorazmda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati va uning oqibatlari (1929 – 1959-yillar)” nomli nomzodlik (PhD) dissertatsiyalari himoya qilindi. B.M. Rasulov muallifligidagi “O‘zbekistonda kollektivlashtirish jarayonidagi siyosiy qatag‘onlar va surgun qilingan dehqonlar ahvoli (1929-1959 yy.) nomli doktorlik dissertatsiyasida esa, XX asrning 20 – 50-yillarida O‘zbekistondagi kollektivlashtirish jarayoni, undagi siyosiy qatag‘onlar, dehqonlarning surgundagi ahvoli bilan birgalikda surgun qilingalarning Ikkinchi jahon urushida fashizmga qarshi kurashi va surgundan ozod qilish tarixini ochib berilgan.

Mazkur maqolada sovetlar davrida O‘zbekistondagi kollektivlashtirish jarayonlari tarixini sohaga oid materiallarni sinxron, muammoviy-xronologik, qiyosiy-tarixiy usullarga tayangan holda tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan fikr va mulohazalarga tayanib, “kollektivlashtirish o‘zi qanday jarayon?” va “uning salbiq oqibatlari nimalardan iborat?” kabi savollarga javob topish mumkin bo‘ladi.

Kollektivlashtirish (Jamoalashtirish) – qishloq xo‘jaligida mulkdorlar tabaqasini tugatish maqsadida sovet hukumatining 1929 – 1933-yillarda o‘tkazgan siyosati bo‘lib, unga ko‘ra, xususiy tadbirkor va o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklariga qarashli yerlar davlat foydasiga tortib olinib, ularning o‘rnida davlat xo‘jaliklari (sovxoz) va jamoa xo‘jaliklari (kolxozlar) tashkil etildi. Yeri tortib olingan zamindorlar, boy dehqon xo‘jaliklari, o‘ziga to‘q xonadon sohiblari kolxozlashtirishga qarshi chiqishi mumkin deb, ichki ishlar xodimlari tomonidan xalq dushmani deb e‘lon qilindi va ularga nisbatan qamoq va surgun qilish kabi jazolar qo‘llandi.

Kollektivlashtirish jarayonining asosi O'rta osiyo respublikalarida o'tkazilgan 1921-1929-yillardagi yer-suv islohoti hisoblanib, O'rta Osiyoda yer-suv islohoti ikki bosqichda amalga oshirilgan:

Birinchi bosqich: 1921 – 1922-yillarda — Turkiston ASSR va Qozog'iston ASSR hududlarida;

Ikkinchi bosqich: O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan keyin, 1925 – 1929 yillar davomida.

Mazkur yillarda amalga oshirilgan vazifalarni uch guruhga ajratish mumkin:

- Mehnat bilan shug'ullanmaydigan boy "quloq" xo'jaliklarini tugatish hamda ko'chmanchi aholini o'troqlashtirish;

- Katta yer egaligini bekor qilib, yerlarni mehnat normalariga muvofiq yersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar hamda chorakorlar o'rtasida taqsimlash;

- Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatidan qolgan ayrim sarqitlarni bartaraf etish, xususan Stolipin islohotlari davrida Turkistonga ko'chirib keltirilgan rus kelgindi dehqonlari tomonidan egallab olingan yerlarni qaytarib olish.

O'rta Osiyo respublikalarida islohot davrida 6763 ta badavlat odamlar qo'lidagi mulk butunlay musodara qilindi, 37759 ta boyning yerlari keskin kamaytirildi, 415500 desyatina yer 123400 yersiz va kam yerli dehqonlar o'rtasida taqsimlandi.[2] Bu bilan agrar islohot yersuvni tortib olishni tugallab, qishloq xo'jaligini davlat monopoliyasiga olish uchun moddiy shart-sharoitlar yaratdi.

Sovet hukumati yer-suv islohotini o'tkazib, yersiz va kam yerli dehqonlarga yer bergan bo'lsa, endi o'sha yerlarni zo'rlik bilan tortib olib, dehqonlarni kolxoz va sovxozlarga birlashtirish siyosatini yuritdi. Bu jarayonda sovetlar o'ziga to'q dehqonlarni "quloq" (ruscha "Кулак" ya'ni "musht", "mushtumzo'r" so'zining talaffuzda buzilgan shakli) deb atadi va ularga qarshi keskin qaror va qonunlarni ishlab chiqdi.

Xususan, 1929-yilning 20-fevralidagi "Quloq xo'jaliklarida mehnat to'g'risidagi Kodeksni qo'llash to'g'risidagi" va shu yilning 21-mayidagi "Mehnat qonuni Kodeksini qo'llash lozim bo'lgan quloq xo'jaliklari belgilarini aniqlash haqida"gi qarorlarga ko'ra, joylarda, jumladan O'zbekistonda ham quloq qilish jarayoni amalga

oshirilayotgan edi. Mazkur hujjatda xo'jalikning "quloq" hisoblanishini belgilovchi bir nechta mezonlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat edi:

- Uzoq muddat davomida yollanma mehnatdan muntazam foydalanish;
- Tegirmon, moyjuvoz va shunga o'xshash ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish;
- Qishloq xo'jaligi asbob-uskunalarini doimiy ravishda ijara asosida boshqalarga berish;
- Mehnat qurollari, ish hayvonlari yoki binolarni mavsumiy yoki muntazam ravishda ijaraga topshirish;
- Sudxo'rlik, savdogarlik yoki vositachilik bilan shug'ullanib mehnatsiz daromad topish.

1929-yilda O'rta Osiyo respublikalari bo'yicha jami 29 mingta xo'jalikka, shundan 15,5 mingtasi O'zbekistonda, yuqoridagi belgilarga asosan soliq to'lash majburiyati yuklatilgan. Soliqni bajarmaganlarga nisbatan jazo choralarini qo'llash belgilangan [3. – B.60]. Bunday xo'jaliklarning mulki mahalliy sovetlar tomonidan musodara qilingan, o'zlari esa hibsga olingan.

1929-yilning oxiriga kelib, VKP(b) Siyosiy byurosi, MK va Oliy sovet organlarining yoppasiga kollektivlashtirish siyosatiga o'tishi uni sun'iy tezlashtirish va bu borada "sotsialistik musobaqa"ning kim o'zdi "poygasini" avj oldirishda hal qiluvchi o'rin tutdi. Yer-suv islohoti endigina yakunlanib, hali o'zini o'nglab olishga ulgurmagan O'zbekiston qishloqlarida ham yoppasiga kollektivlashtirish jarayoni boshlandi.

1930-yil 12 – 15-yanvar kunlari Samarqand shahrida O'zKP(b) MKning IV Plenumi kolxoz qurilishi bo'yicha qabul qilingan rejalarni "sezilarli darajada kengaytirish" haqida ko'rsatma berdi. Bu keyinchalik o'zining salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi va ma'muriy-buyruqbozlikning avj olishiga turtki bo'ldi. 1930-yilda VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining "Yoppasiga kollektivlashtirish va quloqlarni sinf sifatida tugatish ishida O'rta Osiyo partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston bo'yicha 18 rayon yoppasiga kollektivlashtirish rayoni etib belgilandi [4. – B.19].

1930-yilda O'zbekistondagi dehqon xo'jaliklarining 34,4%, ya'ni 288124 xo'jalik kolxozlarga jalb qilindi. Jami 3524 kolxoz tuzilgan bo'lib, shundan 93,4%ni qishloq xo'jalik arteli, 6,3%ni TOZlar, 0,3%ni kommunalar tashkil etdi.

Shunday qilib, 1930 – 1932 yillardagi partiya va sovet hukumatining ma'muriy tazyiqi, oshkora zo'ravonligi, iqtisodiy bosim choralari va siyosiy tadbirlari natijasida O'zbekistonda kollektivlashtirishning yuqori sur'atlari ta'minlandi.

1931 yilda O'zbekistonda kolxozlardagi xo'jaliklar soni 338482 tani yoki jami dehqon xo'jaliklarining 68,2%ni tashkil etdi. 1932 yilda esa kollektivlashtirish 74,9%ni tashkil etib, xo'jaliklar soni 638131 taga yetdi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda kollektivlashtirish rasman amalga oshirilganligining dalili edi [4. – B.20].

Kolxozga a'zo bo'lganlar o'z ishlab chiqarish vositalarini (chorva, qishloq xo'jaligi texnikasi, inventar, urug', binolar va boshqa vositalar) bepul ravishda jamoa mulkiga topshirgan. Yer uchastkalari yakka foydalanishdan chiqib, birlashtirildi va kolxozlarga muddatsiz, bepul foydalanish uchun berildi. Yer davlat mulki sifatida qoldi. Shaxsiy mulk sifatida oilalarda faqat uy-joy, o'rtacha 0,5 gektar tomorqa, bitta sigir, o'n tagacha mayda chorva va parranda qolishi mumkin edi.[5]

Sovet hokimiyatining keskin ravishda olib borgan kollektivlashtirish siyosati dehqonlarning ommaviy noroziligini keltirib chiqardi. 1930-yil yanvardan dehqonlarning noroziligi va qarshiligi ommaviy harakatga aylandi. Norozilikning dastlabki ifodasi – ommaviy shikoyat, arznomalar O'zSSR Sovetlari MIQ raisi, Xalq komissarlari Soveti raisi va O'zKP(b) MK kotiblari nomiga yuborilgan. Ularda dehqonlar majburiy tartibdagi kolxoz tuzumidan ommaviy noroziligi bayon etilgan.

Yoppasiga kollektivlashtirish e'lon qilingan dastlabki kunlardan boshlab chorva hayvonlari soni keskin kamaygan. Kolxozga kirishga majbur qilingan aksariyat dehqonlar xo'jaligidagi hayvonlarini sotish, so'yish yoki boshqa joylarga haydab yuborish holatlari ommaviy tus olgan. Bu Sovetlarning kolxoz qurilishi siyosatiga dehqonlarning o'ziga xos qarshiligi ifodasi bo'lgan.

Bozorda qo'ylar narxi keskin pasaygan. O'rta Osiyo bo'yicha OGPU ma'lumotlariga ko'ra, dehqonlar kolxozga kirishdan oldin barcha hayvonlarini, hatto otlarini ham sotib, faqat sigirlarini qoldirgan. Turli tashviqot va mish-mishlar

natijasida sarosimaga tushgan dehqonlar uy hayvonlari bilan birga mehnat vositalari va urug'lik donlarni ham sotib yuborganlar [4. – B.20].

1930-yilda O'rta Osiyoda jami 336 ommaviy chiqish bo'lgan. Shundan 290 tasida qatnashchilar soni aniqlangan va ular 115950 kishini tashkil qilgan. O'zbekistondagi 235 ommaviy norozilik chiqishlarida 77200 kishi qatnashgan [4].

Kollektivlashtirish davrida ayrim kolxozga kirmaganlarga nisbatan kaltaklash, kiyimsiz holda sovuqda yoyov yurish, muzli suvlarda majburiy chumiltirish va boshqa zo'ravonliklar amalga oshirilgan. Kollektivlashtirishni o'tkazishga biriktirilgan mas'ul xodimlar aholi orasida turli aldov va'dalar berib, ularga bepul mehnat inventarlari, traktor va mashinalar berishni va'da qilib, yolg'on, buhdon hamda qo'rqitishlarni ishga solib, dehqonlarni zo'rma-zo'raki kolxozlarga jalb qilishga uringanlar [6. – B.17].

Sovet hukumatining zo'ravonlik, siyosiy terror va turli hiyla-nayranglarga tayanib olib borgan siyosati natijasida noroziliklar asta-sekin kamaya boshladi.

Jumladan, 1931-yilda ham O'zbekiston hududida dehqonlarning kolxoz qurilishiga qarshi jami 164 ommaviy chiqish sodir etilgan bo'lib, unda 13980 kishi qatnashgan. 1932-yilda siyosiy terrorning kuchayishi natijasida Sovet hokimiyatiga qarshi oshkora chiqishlar anchagina kamaygan. Shu yili dehqonlarning ommaviy chiqishlari 1930 – 1931-yillarga nisbatan keskin kamaygan va 1933-yilda ommaviy chiqishlar kuzatilmagan [4. – B.21].

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilish mumkin bo'ladi: yoppasiga kollektivlashtirish oldidan O'zbekistondagi qishloq aholisi ijtimoiy tarkibi bilan Sovet Ittifoqi markaziy hududlaridan farq qilgan. Bolsheviklar o'zbek qishloqlaridagi an'anaviy ijtimoiy munosabatlarni inobatga olmasdan, qishloqlarga kommunistik mafkurani va sinflar o'rtasidagi kurash g'oyasini majburiy tarzda singdirishga harakat qilganlar.

Natijada, bolsheviklarning zo'ravonlik va ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan kollektivlashtirish siyosatiga qarshi dehqonlar orasida keng ko'lamli norozilik va ommaviy harakatlar yuzaga kelgan. Ushbu noroziliklar oshkora shaklda – arizalar, yig'ilishlar, namoyishlar va ayollarning chiqishlari orqali, yashirin

shaklda esa chorva va ish hayvonlarini sotish yoki so'yish, kambagalarga tarqatish, xorijga olib ketish kabi usullar orqali namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.07.1999 yildagi "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida" 358-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-604981> [Murojaat qilingan sana: 30.11.2025]
2. O'rta Osiyoda yer-suv islohoti // https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBrta_Osiyoda_yer-suv_islohoti [Murojaat qilingan sana: 29.11.2025]
3. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: "Шарқ", 2001. – 368 б.
4. Расулов Б.М. "Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929-1959 йй.) Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. автореферати – Тошкент, 2017. – 67 б.
5. Колхоз // https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BB%D1_%B7 [Murojaat qilingan sana: 30.11.2025]
6. Курбанов Х.Р. Ўзбекистонда зўрлик билан ўтказилган коллективлаштириш ва унинг оқибатлари. 1929-1938 йиллар (ҳозирги Самарканд, Навоий, Бухоро вилоятлари мисолида). Тар. фан. ном. диссертация автореферати. – Тошкент, 2010. – 32 б.